

# Campus Parent platformasini sozlash bo'yicha yo'riqlar

Ota-ona:

Telefon:

Elektron pochta manzili:

Qarindoshligi:

**MUHIM: Ota-onalar/vasiylar farzandingizning transport ma'lumotlari, bepul va arzonlashtirilgan tushlik uchun ariza, hisobot kartasi, davomat, baholar, topshiriqlar va baholar tabelini ko'rish uchun o'zlarining CAMPUS PARENT portalidagi akkauntlarini yaratishlari kerak bo'ladi.**

Agar siz allaqachon Frensis Xouell Campus Parent akkauntini sozlagan bo'lsangiz, iltimos, ushbu xatni e'tiborsiz qoldiring. Bu CAMPUS STUDENT akkaunti uchun emas.

Quyida siz o'zingizning shaxsiy "Faollashtirish kaliti"ingizni topasiz, bu sizga Frensis Xouell maktab okrugi uchun o'z Campus Parent portali akkauntini yaratish imkonini beradi. Umid qilamizki, Campus Parent farzandingizning ta'limda o'zlashtirishini kuzatib borishda sizga yordam beradigan foydali vositaga aylanadi.

## **CAMPUS PARENT PORTALIGA KIRISH:**

O'quvchi ism-sharifi:

O'quvchi ID raqami:

Nechinchi sinf:

### **Activation Key (Faollashtirish kaliti):**

#### **Campus Parent nima?**

Campus Parent ota-onalar uchun tezkor, onlayn, xavfsiz tarzda o'quvchi ma'lumotlariga, jumladan: transport, ovqatlanish uchun arizalar, dars jadvallari, topshiriqlar, davomat, intizom, keyingi yil uchun kurslarga ro'yxatdan o'tish, hisobot kartalari va baholar tabeliga kirish uchun vositamiz.

Campus Parent ota-onalar va o'quvchilar bilan muloqot qilish dasturimizni takomillashtirish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish vositasidir.

#### **Kimlar Campus Parent akkauntiga ega bo'lishi mumkin?**

Hozirgi o'quvchilarning ota-onalari yoki vasiylari foydalanish shartlariga rozi bo'lgandan so'ng Campus Parent akkauntini faollashtirishlari mumkin. Okrug avtomatik ravishda har bir faol Frensis Xouell maktab okrugi o'quvchisi uchun Campus Student akkauntlarini yaratadi. O'quvchi akkauntlari ularga faqat **o'z** ma'lumotlarini kuzatib borish imkonini beradi, ota-onalarning akkauntlari esa okrugda ro'yxatdan o'tgan **barcha** farzandlarining ma'lumotlariga kirish imkonini beradi.

#### **Campus Parent yoki Campus Student haqida qo'shimcha ma'lumotni qayerdan topsam bo'ladi?**

Siz qo'shimcha ma'lumotni Campus portali ostidagi Maktab va okrug veb-sahifalarida topishingiz mumkin **Using the GUID/Activation Key to Create Usernames and Passwords: (Foydalanuvchi nomlari va parollarni yaratish uchun GUID/faollashtirish kalitidan foydalanish:)**

**Faollashtirish kaliti** faqat portalga birinchi marta kirgan foydalanuvchilar o'z akkauntlarini sozlashlari uchun kerak bo'ladi.

**Campus Parent Login** sahifasiga o'ting:

<https://francishowellmo.infinitecampus.org/campus/portal/parents/francis.jsp>

Agar boshqa til kerak bo'lsa, oyna ostidagi opsiyalarni bosib, hozirda til tanlovlari soni juda cheklangan.

Francis Howell R-III

Parent Username

Password

**Log In**

[Forgot Password?](#) [Forgot Username?](#) [Help](#)

[Log In to Campus Student](#)



**New user?**

Activate your Campus Parent account by entering the activation key sent to you by your district.

If you do not have an activation key, please contact your district to obtain one.

Activation Key \*

**Submit**


Login ekranini ostida siz "Yangi foydalanuvchi?" yozuvini ko'rasiz

1. Ushbu opsiya faqat Campus Parent akkauntiga birinchi marta kirganingizda va o'rnatganingizda foydalaniladi.
2. Taqdim etilgan 32 belgidan iborat faollashtirish kalitini kiriting va **Submit (Taqdim etishni)** tanlang.
3. Faollashtirish kaliti tekshiriladi va keyin **Username (foydalanuvchi nomi)** va **Password (parolni)** yaratish uchun ekran paydo bo'ladi.
4. Unikali va kamida 5 ta belgidan iborat **Username (foydalanuvchi nomi)** ni kiriting.
5. **Password (parolni)** kiriting. Kamida (8) belgidan iborat alfanumerik (harflar va raqamlardan iborat) paroldan foydalanish maqsadga muvofiq.
6. **Verify Password (Parolni tasdiqlash)** maydoniga ikkinchi marta parolni kiriting.
7. **Create Account (Akkaunt yaratish)** tugmasini bosib.
8. **security email address (Xavfsizlik elektron pochta manzilini)** kiriting va yangi portal parolingizni qayta kiriting.

**Eslatma:** Agar foydalanuvchi nomingiz yoki parolingizni unutib qo'ysangiz, ularni tiklashga yordam berish uchun ushbu xavfsizlik elektron pochta manziliga havola ketirilgan elektron pochta xabari yuboriladi.

**Campus Parent akkauntini faollashtirgan, lekin parol yoki foydalanuvchi nomini unutgan foydalanuvchilar uchun:**

- **"Forgot Username" (Foydalanuvchi nomini unutdingizmi)?** havolasini bosib.
- Sizga foydalanuvchi nomingiz keltirilgan elektron pochta xabari yuborilishi uchun akkauntingiz xavfsizlik elektron pochta manzilini kiriting.
- **"Forgot Password" (Foydalanuvchi nomini unutdingizmi)?** havolasini bosib.
- Parolni tiklash havolasi fayldagi akkauntingizning xavfsizlik elektron pochta manziliga yuborilishi uchun foydalanuvchi nomingizni kiriting.



Form elements include:

- Label: Password
- Input field: Password
- Button: Log In
- Links: Forgot Password? Forgot Username? Help (circled in red)
- Text: Log in to Campus Student
- Text: or
- Text: New User?

Elektron pochta xabari [infinitecampushelp@fhdschools.org](mailto:infinitecampushelp@fhdschools.org) manzildan yuboriladi.

Agar elektron pochta xabarini ko‘rmasangiz, spam papkani tekshiring.

Agar siz elektron pochta xabarini olmasangiz, akkauntingizga kirishda yordam olish uchun [help.desk@fhdschools.org](mailto:help.desk@fhdschools.org) yoki 636-851-HELP (4357) orqali FHSD Yordam bo‘limiga murojaat qilishingiz mumkin.



**Campus Parent va Campus Student ilovarini sinab ko‘ring!**

